

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

PULATOVA NOZIMA RAVSHANOVNA

**TALABALARNING INNOVATSION BOSHQARUV KOMPETENTLILIGINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHLTLARI**

13.00.07 - Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarigasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertatation abstract the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Pulatova Nozima Ravshanovna

Talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik
jihatlari 3

Пулатова Нозима Равшановна

Педагогические аспекты развития инновационной управленческой
компетентности студентов 17

Pulatova Nozima Ravshanovna

Pedagogical aspects of development of innovative managerial competence
of students..... 35

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 39

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

PULATOVA NOZIMA RAVSHANOVNA

**TALABALARNING INNOVATSION BOSHQARUV KOMPETENTLILIGINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHLTLARI**

13.00.07 - Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.Phd/Ped1049 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Khakimova Muhabbat Fayziyevna**
pedagogika fanlari doktori, professor

Isaqulova Nilufar Janikulovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil “___” _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori,
professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari doktori,
dotsent

S.S.Bulatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar
raisi, pedagogika fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning strategik modellari raqamli iqtisodiy sharoitda ta'lim jarayonlariga ham tatbiq etilmoqda. Bu borada boshqarishda innovatsion muhitni yaratish, innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, ta'lim jarayonlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning innovatsion tashkiliy mexanizmini rivojlantirish, boshqarishning innovatsion strategiyalarini yaratish hamda amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan yirik loyihalar bajarilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida axborot texnologiyalari vositalarini, boshqaruv faoliyatini innovatsiyalar bilan boyitish, pedagogik jamoada innovatsion muhitni rivojlantirish, talabalarining boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalari talabalarining boshqaruv kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlanishidan kelib chiqib, innovatsion kompetentligini takomillashtirish orqali samarali inson resurslarini faollashtirish va iqtisodiy, texnologik jihatdan rivojlantirish, strategik va taktik loyihalarni innovatsiyalar asosida olib borishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekiston strategiyasi va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish davrida amalga oshirilayotgan islohotlar "...mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor islohotlariga o'tishi innovatsion faoliyatni rivojlantirishga bo'lgan yangicha yondashuvlarga yo'l ochib berish" darajasiga olib chiqishga xizmat etadi. Natijada ta'lim muassasalarini innovatsion boshqarishdagi faoliyatni takomillashtirish loyihalarini ishlab chiqish va ta'lim sifati natijasi samaradorligini oshirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 yanvardagi PF-60 son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021 yil 1 apreldagi PF-6198-son «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish to'g'risida» Farmonlari, «Oliy ta'lim tizimini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlarda faol ishtirokini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida, 2018 yil 21 noyabrdagi PQ-4022-son «Raqamli infratuzilmani yana-da modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-son «Pedagogik ta'lim sohasini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son «Ta'lim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son «Oliy o'quv

yurtidan keyingi ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'limda innovatsion boshqaruvni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish, kadrlarining boshqaruv kompetentligini shakllantirish R.X.Djurayev, X.I.Ibragimov, Sh.Ye.Qurbonov, S.S.G'ulomov, M.T.Mirsoliyeva, M.Pardayeva, Y.U.Ismadiyarovlar; rahbar va mutaxassislarning uzluksiz kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish N.Ahmedova, M.Innazarov, Sh.Nizamova, B.Illhomovlar; ta'limi tizimi sifat monitoringi S.T.Turg'unov, U.I.Inoyatov, U.Sh.Begimqulov, Sh.Q.Mardanov, N.A.Muslimov. M.A.Yuldashevlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilgan.

MDH olimlaridan M.V.Klarin , V.I.Slobodchikov, M.M.Potashnik , K.N.Gojenko, V.A.Shvandar, V.Y.Zligostev, G.P.Shedrovitskiy, V.Y.Gorfinkelya, V.F.Rubaxin, A.Fayol, I.V.Usolseva, A.V.Filippov, I.F.Filchenkovalar pedagogik innovatsiyalar va innovatsion kompetentlikga tayyorlash muammolarning yechimlariga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Xorijlik olimlardan P.Druker, D.Hampton, E.Charles, A.Ross, P.Hersey, P.Kotler, M.Kotler, B.Baalbaki, H.Shamma, U.Shuxart, F.Schneiderlarning ilmiy tadqiqotlarida rahbar-xodimlarning innovatsion boshqaruv faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatdan yoritib berishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy ishlar rejasi hamda PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020 yy.).

Tadqiqotning maqsadi talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik jihatlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarni innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarning o'quv jarayonini boshqarishga tayyorgarligining aksiologik mezonlarini takomillashtirish;

talabalarni innovatsion boshqaruv kompetentligini tizimli, sinergetik, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida innovatsion boshqaruv faoliyatiga jalb etish modelini takomillashtirish;

talabalarni innovatsion boshqaruv faoliyatiga tayyorlash metodlarining samaradorligini monitoringini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik jihatlarini takomillashtirishning jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Buxoro davlat universitetining 300 nafar talabalar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini pedagogik jihatlarini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida mavzuga oid pedagogik, psixologik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, anketa-so'rov, suhbat, test, matematik va statistik tahlil, modellashtirish, umumlashtirish kabi metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda iborat:

talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligi kommunikativ-ijodiy muhitni iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda yaratish, mas'uliyat va moslashuvchanlik sifatlarini ta'limiy maqsadlarga ko'ra bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda subyekt-subyekt munosabatlaridagi axborot-texnologik jarayonlarni tadrijiy va intensiv jadallashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayoni ish tajribasi, psixologik tayyorgarlik va individual kasbiy ehtiyojlarga mos tabaqalashgan o'quv faoliyatini ta'lim maqsadlariga mos rivojlantiruvchi va ijodiy faollikni oshiruvchi topshiriqlarni kiritish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish modeli kasbiy yo'nalganlik, adolatlilik, jamoa ishonchi, samarali hamkorlik, qat'iyatlilik sifatlarini belgilovchi aksiologik mezonlarning davriy yangilanib borish davomiyligini strategik maqsadlarni to'g'ri tanlashiga barqarorlashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalar innovatsion boshqaruv kompetentligini baholash mezonlari raqamli ta'lim paradigmalari shakl va mazmun jihatdan uyg'unlashtirish hamda innovatsion-ijodiy muhitni zamonaviy intellektual yondashuvlarning natijaviy maqsadlari reproduktivligiga identifikativ moslashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalar innovatsion boshqaruv kompetentligining mazmuni rivojlantirilgan;

“Umumta'lim maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv faoliyati” nomli o'quv-metodik qo'llanma nashr etilgan;

“Ta'lim muassasalarini boshqarish o'quv modulining elektron o'quv dasturi”ga mualliflik guvohnomasi olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Xorijiy va OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiya materiallari, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining natijalarining ilmiy ahamiyati innovatsion boshqaruv indikatorlari innovatsion

boshqaruv kompetentligini ishlab chiqilgan individual trayektoriyasi va model bilan asoslanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati pedagogik va psixologik manbalar, ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda talabalarning innovatsion boshqarishning nazariy va amaliy holati tahlil etilib, “innovatsion faoliyat”, “innovatsion kompetensiya”, innovatsion boshqaruv kompetentligi, talabalarning innovatsion boshqarish kompetentligini mezonlari takomillashtirildi, o‘quv jarayonini innovatsion boshqarish samaradorligini ta’minlashdagi imkoniyatlari ochib berildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligi kommunikativ-ijodiy muhitni iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda yaratish, mas’uliyat va moslashuvchanlik sifatlarini ta’limiy maqsadlarga ko‘ra bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda subyekt-subyekt munosabatlaridagi axborot-texnologik jarayonlarni tadrijiy va intensiv jadallashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124 raqamli "Ta’lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" mavzusidagi loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 14 fevraldagi 02-07-467/04-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga sharoit yaratilgan;

talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayoni ish tajribasi, psixologik tayyorgarlik va individual kasbiy ehtiyojlarga mos tabaqalashgan o‘quv faoliyatini ta’lim maqsadlariga mos rivojlantiruvchi va ijodiy faollikni oshiruvchi topshiriqlarni kiritish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan YOA-1-22 raqamli "Fanlarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish" mavzusidagi grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 14 fevraldagi 02-07-467/04-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalar boshqaruv strategiyalarini belgilay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishga imkon yaratilgan;

talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish modeli kasbiy yo‘nalganlik, adolatlilik, jamoa ishonchi, samarali hamkorlik, qat’iyatlilik sifatlarini belgilovchi aksiologik mezonlarning davriy yangilanib borish davomiyligini strategik maqsadlarni to‘g‘ri tanlashiga barqarorlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124 raqamli "Ta’lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" mavzusidagi loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 14 fevraldagi 02-07-467/04-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan;

talabalar innovatsion boshqaruv kompetentligini baholash mezonlari raqamli ta’lim paradigmalariga shakl va mazmun jihatdan uyg‘unlashtirish hamda innovatsion-ijodiy muhitni zamonaviy intellektual yondashuvlarning natijaviy

maqsadlari reproduktivligiga identiv moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan YOA-1-22 raqamli "Fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish" mavzusidagi grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 14 fevraldagi 02-07-467/04-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning innovatsion kompetensiyalari samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish imkoni kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy-boshqaruviy ish chop etilgan, jumladan OAK ro'yxatida qayd etilgan jurnallarda 4 ta, ulardan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 141 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv asosida mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim yo'nalishi sifatida innovatsion boshqaruvni tashkil etishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan. O'quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta'minlash masalalarida rahbarlarining boshqaruv kompetentligini ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik innovatsion tamoyillar asosida takomillashtirishning ilmiy ahamiyati masalalariga to'xtalgan.

Dissertatsiyaning **"Talabalar innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida ta'limda innovatsion boshqaruv genezisi va mohiyati, talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari hamda zamonaviy yondashuvlar yoritilgan.

Ta'limda innovatsion boshqaruvni genezisi va mohiyati "ta'limda innovatsiya", "boshqarishda innovatsiya", "innovatsion kompetentlik" tushunchalarining turlicha izohlanishi keltirilgan bo'lib, jumladan, mualliflar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar keltirilgan. "Innovatsiya" tushunchasi ilk bor XIX asrda amalga oshirilgan tadqiqotlarda qo'llanilgan bo'lib, muayyan sohada erishilgan madaniyat yutuqlarining ma'lum qismlaridan boshqa sohada qo'llanilishini anglatadi. Tarix shundan dalolat beradiki, inson o'zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topishdan, algoritm va nanozarrachalar, zamonaviy innovatsion kompyuter, super mikroelektron, biologik, gen muhandisligi, quyosh va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi.

"Yangilik", "yangi narsa", "yangilik kiritish", "innovatsiya" tushunchalari garchi ular orasida ma'lum bir farqlar bo'lsada, ko'pincha teng holda olib qaraladi. "Innovatsiya" atamasi XVII asr o'rtalarida paydo bo'lgan va yangi narsaning biron bir sohaga kirishini, unga birikib ketishini va mana shu sohada bir qator

o'zgarishlarni keltirib chiqarishini anglatadi. Demak, innovatsiya – bu bir tomondan, amalga oshirish va joriy qilish jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomondan – bu yangi narsaning ma'lum bir ijtimoiy amaliyotga joriy qilinishi bo'yicha faoliyatdir.

Y.Shumpeter “innovatsiya” tushunchasini inson ehtiyojlarini qondiruvchi, bozor munosabatlariga asoslangan ishlab chiqarish, shuningdek, tashkilotchilik shakli sifatida talqin etadi. V.S.Slastenin esa, innovatsion jarayon tuzilmasini yangi g'oyaning tug'ilishi, biron-bir obyektga yoki ma'naviy mahsulot namuna ko'rinishda yuzaga chiqarilgan yangilikning yaratilishi, olingan yangilik amaliyotda qo'llash, yangilikning yangi sohalarga tarqalishi (diffuziyalanishi), aniq sohada yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning yana-da boshqa bir yangi mahsulot bilan o'rin almashishi tarzida ta'riflaydi. A.Smit o'zining “The Wealth of Nation” nomli monografiyasida nafaqat bozor tizimi (talab va taklifning nisbati), balki yangi texnologiyalar yordamida raqobatbardoshlikni yana-da oshirish, tashkilot va kompaniyalar ochiq bozordagi raqobat kurashida innovatsiyalardan amaliy omil sifatida foydalanadi degan fikrni bildiradi.

Innovatsiyalarning fundamental asoschilaridan N.D.Kondratyev o'z tadqiqotlarida katta ijtimoiy o'zgarishlarning yuz berishi shakllanishida texnik o'zgarishlarning rolini aniq ko'rsatib bermagan bo'lsada, katta to'lqinlarning ko'tarilishi chog'ida ayrim yangiliklarning amalga oshganini nazarda tutgan.

Ta'limdagi innovatsiyalar, ularning modernizatsiyasidagi yetakchi rolini yaxlit insonparvarlik va yangi ilmiy ta'limni berishga chaqiruvchi gimnaziyalar va universitetlarning vujudga kelishi bilan izohlash mumkin. O'z davrining innovatsiyasi sifatida chex pedagogi Ya.A.Komenskiyning ta'limoti ta'limning sinfdars tizimi asoslarini o'z ichiga olgan pedagogik tizimdir. Uyg'onish davrining ta'limiy va didaktik islohotlari sifatida D.Lokk, J.J.Russo, I.G.Pestalossi va boshqalarning alternativ mualliflik didaktik konsepsiyalarini keltirish mumkin. Rossiyada ta'lim sohasi doimiy ravishda innovatsiyalarga boy bo'ldi, xususan, bu M.V.Lomonosovning didaktik tizimi, K.D.Ushinskiyning pedagogik antropologiyasi, L.N.Tolstoyning mustaqil axloqiy tarbiyaning sof tizimi va boshqalar.

Biz o'rgangan ilmiy manbalar tahlili natijasi zamonaviy innovatsiya usullari va vositalarini joriy etish orqali boshqaruv kompetentligi samaradorligini oshirish, ta'lim sifati oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, boshqaruvda iqtisodiy, ijtimoiy, kasbiy moslashuvchanlikni ta'minlash zarurligini ko'rsatdi.

Talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlari umumnazariy, umumboshqaruv, umumtexnologik, umumtizimlilik yondashuvlar bo'yicha olib borilgan izlanishlarning natijalariga asoslanadi. Talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda taklif etilayotgan innovatsiyalarning amaliyotga mosligi va amaliyotda qo'llaniluvchanligi tahlil natijalariga ko'ra aniqlanadi. Tahlilni amalga oshirishda quyidagi uch holat inobatga olinadi: oliy ta'lim muassasalari talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda innovatsion taklif (yangilik)larni amaliyotga tatbiq etishdan avval o'rganish va obyektiv baholash; oliy ta'lim muassasalari talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlantirishda innovatsion taklif (yangilik)larni tatbiq etish davrini bevosita tahliliy o'rganish; oliy

ta'lim muassasalari talabalarining boshqaruv kompetentligiga innovatsion taklif (yangilik)lar bevosita tatbiq etilgandan keyingi holatni tahliliy o'rganish.

Innovatsion boshqaruv kompetensiyaga ega talaba umumiy kompetensiyalarga ham ega bo'lishi kerak. O'z o'rnida umumiy kompetensiyalar shakllanishida ta'limda boshqaruv, boshqaruvda huquqiy masalalar, boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik, boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, inklyuziv ta'limni joriy etish, o'zini-o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalariga e'tibor qaratishlari lozim.

Talabalarining boshqaruv faoliyatini xorijiy tajribalar bilan boyitib borilishi onlayn va offlayn o'qitishni tashkil etish hamda talabalarining xorijiy o'quv markazlarida stajirovka orqali malakasini oshirish imkoniyatlarini izlab topishdan iborat. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasini o'rganishda milliy innovatsiya tizimiga tayanish milliy raqobatbardoshlikning yuqori darajasiga erishishning optimal yo'llarini belgilab beradi. Demak, talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligi milliy innovatsiya tizimi ilm-fan, sanoat va jamiyat o'rtasida shunday uzviy munosabatlar tizimini shakllantiradiki, unda innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta'lim muassasasi talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish metodlari, modeli, talabalarni innovatsion boshqaruv faoliyatga tayyorlash trayektoriyasi yoritilgan.

Globalashuv jarayonlari umuman ta'lim tizimini modernizatsiya qilish zarurligini belgilaydi. Ta'lim yangiliklari bu o'zgarishlarning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini ijtimoiy-iqtisodiy muhit, boshqarishning bozor mexanizmi strategik maqsadlarni to'g'ri tanlashiga yordam beradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarida boshqaruv yangi tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda. Rivojlangan mamlakatlardagi innovatsion faoliyat kuzatilib, zamonaviy talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligi ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqib taklif etildi. Milliy innovatsiya tizimi ilm-fan, sanoat va jamiyat o'rtasida uzviy munosabatlar tizimini shakllantirdi, unda innovatsiyalar iqtisodiyot rivojlanishining asosi bo'lib xizmat qiladi, innovatsion rivojlanish ehtiyojlari esa ilmiy kompetentlikning rivojlanishini belgilab beradi va rag'batlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga 2020 yil 29 dekabrda Murojaatnomasida dolzarb vazifalar qatorida maktab ta'limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish belgilangan, shuningdek, mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalar deb ta'kidlangan.

Dissertatsiyada talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish deganda ichki boshqaruv tizimi xarakteri, tamoyillari, funksiyalari, boshqaruv subyektlari tarkibi va amalga oshirish mexanizmlari to'g'risidagi barcha tasavvurlarimiz jamlanmasidan iborat deb talqin etilgan.

innovatsion jarayon barcha ishtirokchilarining ulardan aynan qachon va qanday natija kutilayotganligini anglash

mazkur natijalarni olishda ularning manfaatdorligini shakllantirish

innovatsi-on jarayonda ishtirok etishdan qanoatlanganliklarini shakllantirish


Boshqaruvda innovatsion kompetentligi talabalarning amalga oshiradigan quyidagi boshqaruv harakatlarini o‘z ichiga oladi: guruhning barqaror ishlashiga qaraganda ancha yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratish; yangiliklarga ijobiy munosabat va qo‘llab-quvvatlash; bajarilgan ishning yangiligini tahlil qilish; guruhning tarkibiy qismlari, jarayonlari, o‘quv jarayoniga jalb qilingan subyektlar uchun parametrlarini aniqlash; turli vaziyatlarda, favquloddagi holatlarda boshqaruvni moslashuvchanligini beqarorlashtiruvchi omillarning ta’sirini aniqlash; yangiliklar natijasida motivatsiya uyg‘otish (yangi g‘oyalar, natijalar, muammolar, raqobatchilar va boshqalar); innovatsion jarayon ishtirokchilari tomonidan eng yuqori darajadagi shaxsiy ehtiyojlarni (ijtimoiy ehtiyojlar, o‘zini namoyon qilish ehtiyojlari, o‘zini namoyon qilish, yuqori ijodiy natijalar) amalga oshirish imkoniyatini aniqlash; innovatsion jarayon ishtirokchilarining boshqaruv mahoratini doimiy ravishda oshirish zaruriyatini aniqlash; innovatsion boshqaruvni guruhning shaxsiy fazilatlariga qo‘yiladigan talablar doirasini tashkillashtirishdir. Innovatsiyalarning korrelyatsiya va regressiya bog‘liqliklari asosida quyidagilar amalga oshiriladi: innovatsion faoliyatni rejalashtirishning me‘yoriy usullari ishlab chiqish; innovatsion boshqaruv faoliyatidagi tartib-qoidalari va lavozim yo‘riqnomalarni ishlab chiqish; innovatsion boshqaruv funksiyalarining har birida alohida-alohida qaror qabul qilish bilan bog‘liq jarayonlarni iqtisodiy va matematik modellashtirish; innovatsion boshqaruv faoliyatini tashkiliy tuzilma va tematik rejalarni shakllantirish uchun optimallashtirish modellarini ishlab chiqish, innovatsion boshqaruv faoliyatida ish grafiklarini tuzish va shu asosda tarmoq usullariga ajratish; tizim parametrlarini atrof-muhit sharoitlariga moslashtirish; innovatsion boshqaruv jarayonida innovatsiyalarni “kirish, chiqish jarayonini” sifatini baholash usulini ishlab chiqish; innovatsion boshqaruvni rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish; innovatsiyalarni boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli yuritishda tashqi va ichki sharoitlarini hisobga olish; innovatsion menejerlarning vaziyat bilan bog‘liq barcha mavjud vositalarga ijodiy

yondashuvlarini hisobga olish; innovatsion boshqaruvda konfliktlarni boshqarish usullaridan foydalanish; innovatsion boshqaruvda asosan ijodiy boshqaruv usullaridan foydalanish. Innovatsion boshqaruv kompetensiyasi – bu yangiliklarni yaratish va amalga oshirish qobiliyatlari, tahlil qilish, yangi vaziyatlarga moslasha olish, o‘quv jarayonining unumdorligi va subyektlarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan boshqarishdir.

Ta’lim maqsadlariga tizimli boshqaruv bilimlarning shakllanishini, tarbiyaviy maqsadlarga mos ilmiy dunyoqarashning shakllanishini, rivojlantirish maqsadlariga mos tafakkur va mustaqillikning rivojlanishini kiritish mumkin. Maqsadlarning ularning yakuniy natijasi bo‘yicha tasnifi shunga olib keladiki, talaba uchun uning yuqori professionallik darajasi maqsadga aylanadi, o‘qituvchi uchun esa asosiy maqsad talaba haqiqiy professionalga aylanishi va uni ushbu masalalarni yechishni o‘rgatish uchun vazifalarni tanlash va qo‘llashdan iborat bo‘ladi. Talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning modeli 1-rasmda tasvirlangan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o‘tkazish hamda natijalarining tahlili keltirilgan. Talabalarning shaxsiy xususiyatlari va ularning boshqarishdagi tashabbuskorligi jamoada aks etishining quyidagi mezonlari aniqlandi: yangi bilimlarga egaligi; boshqarishni strategik rejalashtira olishi; tashabbuskorligi; bozor talablarini va ijtimoiy ehtiyojlarni o‘rganib borishi; kommunikativ muloqotchanligi; ta’lim olish muhitining motivatsiya asosida tashkil eta olishi; menejerlik faoliyatiga oid ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Innovatsion boshqaruv kompetentligiga ega bo‘lgan talabalarning tashabbuskorligini o‘rganish natijasida innovatsion muhitning jamoada aks etish quyidagi mezonlari aniqlandi: yangiliklarga ijobiy munosabatda bo‘lish; ta’lim xizmatlarini tashkil etish uchun loyihalar yaratish; tadqiqotchilik ishlari olib borishga intilish; kasbiy faoliyatini rivojlantirishda istiqbolli rejalarini tuzish; ilg‘or xalqaro tajribalar asosida innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalardan foydalanish amaliyotini kengaytirish; o‘quvchilar orasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantira olishi; ta’lim sifatini oshirish uchun rag‘batlantirish shakllarini ishlab chiqish. Innovatsion boshqaruv kompetentligining motivatsion, loyihalash, kognitiv, texnologik, ijodiy, normativ komponentlari aniqlandi va tizimlashtirildi. Motivatsion komponent – talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, dasturlarini yaratish bo‘yicha bilim, ko‘nikmalar hamda pedagoglar bilan o‘zaro ta’sirning yangi parametrlarini loyihalash.

Loyihaviy komponent – innovatsion faoliyatning shaxsiy ahamiyatini aniqlash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish. Kognitiv komponent – pedagogik innovatsiya nazariyasining metodologik, nazariy asoslarini bilish hamda innovatsion faoliyatning metodologik konsepsiyasini yarata olish. Texnologik komponent – an’anaviy va innovatsion ta’lim usullarini birlashtirish qobiliyati, pedagogik eksperimentni amaliyotlarda tashkil etishga yordam berish. Ijodkorlik komponent – pedagogik innovatsiyalarga qabul qilish, bir nechta yechimlarni ishlab chiqarish qobiliyati. Normativ komponent – innovatsion jarayonni boshqarish qobiliyati, innovatsiyalarni joriy etish va nazorat qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikmalar aniqlanib, tahlil qilish, amalga oshirish, umumlashtirish.



1-rasm. Talabarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogic modeli.

Talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari quyidagi tartibda o'tkazilgan.

Aniqlash va tayyorgarlik bosqichi (2019-2020 yy). Ushbu bosqichda tadqiqotni amalga oshirish rejasi tuzildi, tajriba-sinov maydonlari aniqlab olindi. Talabalarning auditoriyalarni boshqarishdagi innovatsion boshqaruvni rivojlantirishdagi normativ-huquqiy baza, o'quv dasturlar namunalari tahlil qilindi, farazlar shakllantirildi. Talabalarning innovatsion boshqaruv faoliyatiga doir yo'nalishlar belgilab olindi. Tadqiqot muammosiga doir anketa so'rovnomalari orqali bo'shliqlar aniqlandi.

Amalga oshirish bosqichi (2020-2021 yy). Talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi. Modelni samarali amalga oshirishda pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi, innovatsion boshqaruvni rivojlantiruvchi texnologiyalar belgilab olindi. Farg'ona davlat pedagogika instituti (102 nafar), Buxoro davlat universiteti (97 nafar), Toshkent davlat pedagogika universiteti (101 nafar) talabalari innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish uchun tanlab olindi.

Yakunlovchi bosqichi (2021 y). Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil qilindi, yakuniy diagnostik tashxislar o'tkazildi, natijalar qayta ishlab chiqildi, o'tkazilgan tajribadan olingan ma'lumotlar tizimlashtirildi va ish natijalari rasmiylashtirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.


Pedagogik tajriba-sinov ishlarida talabalar ishtiroki

Hudud	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami
Farg'ona davlat pedagogika instuti	52	50	102
Bukhoro davlat universiteti	48	49	97
Toshkent davlat pedagogika universiteti	48	53	101
Jami:	148	152	300


O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslangan holda talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning samaradorlik darajasini aniqlash bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirishlarini Styudentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida jami 300 nafar tinglovchilar qatnashib, tajriba boshida 300 nafar va tajriba yakunida 300 nafarni tashkil etdi.

Mezonlar bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari qiymatlari diagramma ko'rinishda 2-rasmda, talabalar innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari esa 3-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Talabalar innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning o'rtacha o'zlashtirish qiymatlari.



3-rasm. Talabalar innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari.

Demak, talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini shaxsiy mezonlari bo'yicha o'rtacha samaradorlik 1,16 barobarga, talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mezonlari bo'yicha samaradorlik 1,15 barobarga oshganligi statistik usullar orqali isbotlandi.

XULOSA

Talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy muammo ekanligi aniqlangan hamda talabalarining innovatsion boshqaruv

kompetentligini individual kasbiy rivojlanishi ehtiyojlarga asoslangan shaxsiy va faoliyatli indikatorlari ishlab chiqilgan.

2. Boshqaruvda innovatsion usullarning qo'llanilishi natijasida talabalarning boshqaruv unumdorligi, ularning kasbga bo'lgan munosabati, talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini aksiologik mezonlari takomillashtirilgan.

3. Olib borilgan tajriba shuni ko'rsatdiki, talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini avvalgi imkoniyatlarini saqlab qolgan holda, uning bir darajadan ikkinchi darajaga bosqichma-bosqich o'tishiga mos kelishi, talabalarning innovatsion boshqaruv faoliyatini natijalarining tavsifiy va miqdoriy jihatdan aniqlangan.

4. Ijtimoiy hayotdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi talabalarning boshqaruv kompetentlik mazmuni hamda maqsadlarini tushunishi, o'z shaxsiy va tashkiliy maqsadlar hamda vazifalarga bo'lgan munosabatini aks etuvchi talaba shaxsining yoshi, kasbiy boshqaruv tajribalari, rivojlanishning ijtimoiy vaziyati, oilaviy holati va ma'lumoti darajasi bilan bog'liqligi aniqlangan.

5. Talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish modeli kasbiy yo'nalganlik, adolatlilik, jamoa ishonchi, samarali hamkorlik, qat'iyatlilik sifatlarini belgilovchi aksiologik mezonlarning davriy yangilanib borish davomiyligini strategik maqsadlarni to'g'ri tanlashiga barqarorlashtirish asosida takomillashtirilgan.

6. Talabalar innovatsion boshqaruv kompetentligi baholash mezonlari raqamli ta'lim paradigmalari shakl va mazmun jihatdan uyg'unlashtirish hamda innovatsion-ijodiy muhitni zamonaviy intellektual yondashuvlarning natijaviy maqsadlari reproduktivligiga identifikativ moslashtirish asosida takomillashtirilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

oliy ta'lim muassasalari talabalarining boshqa xorijiy davlat ta'lim muassasalari talabalarini bilan tajriba almashinuvini amaliy seminar, malakaviy amaliyot shakllarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq;

talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlanish tamoyiliga asoslangan xalqaro trening va amaliy seminarlar tashkil etish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ПУЛАТОВА НОЗИМА РАВШАНОВНА

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ
УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ**

13.00.07 – Менеджмент в образовании

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2022.1.Phd/Ped1049.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tdpu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net)

Научный руководитель: **Абдуллаева Барно Сайфутдиновна**
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Хакимова Муҳаббат Файзиевна**
доктор педагогических наук, профессор

Исакулова Нилуфар Жаникуловна
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация: **Джизакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 г. в __ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном педагогическом университете (Адрес: 100011, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, дом 27. Тел.:(99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована за № __) (Адрес: 100011, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, дом 27. Тел.:(99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-80-86).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года.
(реестр протокола рассылки № __ от «__» _____ 2023 года)

З.Н.Мамаражабова
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
педагогических наук, профессор

Р.Г.Исянов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
педагогических наук, доцент

С.С.Булатов
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, доктор педагогических
наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире стратегические модели развития инновационной управленческой компетентности внедряются также и в процессы образования в условиях цифровой экономики. В этом направлении выполняются крупные проекты, направленные на создание в управлении инновационной среды, разработку стратегии инновационного развития, организацию образовательных процессов на основе инновационного подхода, развитие инновационных организационных механизмов подготовки кадров, конкурентоспособных на рынке труда, создание и внедрение в практику инновационных стратегий управления.

В образовательных и научно-исследовательских учреждениях мира проводятся научные изыскания по вопросам обогащения инновациями средств информационных технологий, управленческой деятельности, развития инновационной среды в педагогическом коллективе, совершенствования управленческих компетенций студентов. Вместе с тем, исходя из поэтапного развития управленческих компетенций студентов в высших образовательных учреждениях, обращается особое внимание научным исследованиям, направленным на активизацию и технологическое развитие человеческих ресурсов на основе стратегических и тактических проектов путём совершенствования инновационной компетентности.

Стратегия Нового Узбекистана и реформы, реализуемые в период создания фундамента Третьего Ренессанса, служат открытию пути для новых подходов к развитию инновационной деятельности при переходе экономики нашей страны к рыночным реформам. В результате расширяются возможности для разработки проектов по совершенствованию инновационной управленческой деятельности образовательных учреждений и повышения эффективности результата качества образования.

Данное исследование в определенной мере служит реализации задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 8 октября 2019 года №УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, от 29 октября 2020 года № УП-6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года», от 6 ноября 2020 года № УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана», от 1 апреля 2021 года № УП-6198 «О совершенствовании системы государственного управления в сфере развития научной и инновационной деятельности», постановлениях Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № ПП-3775 “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах”, от 21 ноября 2018 года № ПП-4022 “О мерах по дальнейшей модернизации цифровой инфраструктуры в целях развития цифровой экономики”, от 6 ноября 2020 года № ПП-4884 “О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию

системы образования и воспитания”, от 27 февраля 2020 года № ПП-4623 “О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования”, от 6 ноября 2020 года № ПП-4884 “О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания”, постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 мая 2017 года № 304 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы послевузовского образования”, а также других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. Р.Х.Джураевым, Х.И.Ибрагимовым, Ш.Е.Курбоновым, С.С.Гуломовым, М.Т.Мирсолиевой, М.Пардаевой, Й.У.Исмадияровым проведены научные исследования по вопросам совершенствования механизмов формирования инновационного управления в образовании, формирования управленческой компетентности кадров; Н.Ахмедовой, М.Инназаровым, Ш.Низамовой, Б.Илхомовым – по вопросам развития непрерывной профессиональной подготовки руководителей и специалистов; С.Т.Тургуновым, У.И.Иноятовым, У.Ш.Бегимкуловым, Ш.К.Мардановым, Н.А.Муслимовым. М.А.Юлдашевым – по вопросам мониторинга качества системы образования.

В странах СНГ такими учёными, как М.В.Кларин, В.И.Слободчиков, М.М.Поташник, К.Н.Гоженко, В.А.Швандар, В.Й.Злигостев, Г.П.Шедровитский, В.Я.Горфинкель, В.Ф.Рубахин, А.Файоль, И.В.Усольцева, А.В.Филиппов, И.Ф.Фильченкова проведены научные работы по решению проблем подготовки к педагогическим инновациям и инновационной компетентности.

В научных изысканиях таких зарубежных учёных, как П.Друкер, Д.Хамптон, Э.Чарлес, А.Росс, П.Херсей, П.Котлер, М.Котлер, Б.Баалбаки, Х.Шамма, У.Шухарт, Ф.Счнейдер, обращено внимание на психологические и педагогические аспекты формирования инновационной управленческой деятельности руководящих кадров.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках практического проекта № ПЗ-2017927124 на тему «Развитие педагогической деятельности в образовательных учреждениях на основе педагогики сотрудничества» плана научно-исследовательских работ Ташкентского государственного педагогического университета (2017-2020 гг.).

Целью исследования является разработка рекомендаций по совершенствованию педагогических аспектов развития инновационной управленческой компетентности студентов.

Задачи исследования.

